



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-dekabr

294-5-74-Q/25

Nurota tumani hokimligi

Tumandagi yer turlari, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarga bo‘linishi bo‘yicha 2026-yil 1-yanvar holatiga bo‘lgan yer hisobotini tasdiqlash to‘g‘risida

Tuman hokimligida ro‘yxatga olingan Davlat kadastrlari palatasi Nurota tuman filialining 2025-yil 29-dekabrda 01-06-01-15//2861-sonli xati va tumandagi yer turlari, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarga bo‘linishi to‘g‘risidagi 2026-yil 1-yanvar holatiga bo‘lgan yillik yer hisobotini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 6, 8 va 31-moddalari, Davlat yer kadastr to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 7-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 6 va 21¹-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Davlat kadastrlari palatasi Nurota tuman filialining 2025-yil 29-dekabrda 01-06-01-15//2861-sonli xati inobatga olinsin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Navoiy viloyati boshqarmasi Nurota tuman filiali tomonidan taqdim etilgan, Nurota tumanidagi mavjud yer yegalari va yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va toifalari bo‘yicha taqsimlanishi to‘g‘risida 2026-yil 1-yanvar holatidagi yillik hisoboti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Allayev, Kadastr agentligi Nurota tuman bo‘limi (H.Tursuntoshev), Davlat kadastrlari palatasi Nurota tuman filiali (E.Ro‘zimurodov):

barcha qishloq xo‘jalik korxonalar va fermer xo‘jaliklari rahbarlari, tashkilotlar, korxonalar, muassasalar va fuqarolar tomonidan o‘zlariga ajratilgan yerlardan yer to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga amal qilgan holda oqilona foydalanishini, yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallanishiga, o‘zboshimchalik bilan qurilish qilinishiga hamda o‘zboshimchalik bilan yerlarni olib qo‘yishga yo‘l qo‘ymaslikning qat‘iy choralarini ko‘rsin hamda ichki xo‘jalik qurilishlariga va tadbirkorlarga yer ajratishni qat‘iy tartiblar asosida amalga oshirilishi ustidan nazorat qilsin.

4. Kadastr agentligi Nurota tuman bo'limi (H.Tursuntoshev) xamda Davlat kadastrlari palatasi Nurota tuman filiali (E.Ro'zimurodov)larga qishloq xo'jaligi yerlardan qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan ehtiyojlar uchun yer ajratilishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash topshirilsin.

5. Tuman hokimining 2024-yil 24-dekabrda 233-5-74-Q/24-sonli hamda 2024-yil 27-dekabrda 235-5-74-Q/24-sonli qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Fayziyev

Nurota tumani hokimining
2025-yil 30-dekabrda
294-5-74-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Nurota tumanda mavjud yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer turlari va toifalari bo'yicha taqsimlanishi

№	Yer toifalari fondi	Gektar hisobida
	Jamoa xo'jaliklari va xo'jalik kooperativ (shirkat)lari	439 582
1	<i>Shundan:</i> Massiv va xo'jaliklarga qarashlisi	52 982
2	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantrish qo'mitasining hududiy yaylov xo'jaliklari yerlari	386 600
3	Boshqa vazirlik, tashkilot va korxonalariga qarashlisi	18 545,5
4	Qishloq xo'jaligi ilmiy-tekshiruv muassasalari va o'quv yurtlari yerlari	700
5	Yordamchi qishloq xo'jalik korxonalarini yerlari	101,5
6	Fuqarolarning bog'dorchilik, sabzavotchilik, issiqxona, chorvachilik va boshqa yo'nalishdagi yerlari	
7	Aholi yashash joylari	2 078
8	Sanoat, transport va boshqa maqsadlar uchun berilgan yerlar	3 093
9	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish maqsadlariga berilgan yerlar	158
10	Tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar	186
11	O'rmon fondi yerlari	22 635
12	Gidrotexnik va boshqa suv xo'jalik inshootlari yerlari	101 157
13	Zaxira yerlar	5392
	Jami yerlar	593 628
	Yer fondi Yer turlari bo'yicha taqsimlanishi	
1	Jami yekin yerlari	28 163
2	Shu jumladan sug'oriladigan	3 857
3	Ko'p yillik daraxtzorlar	1 381
	<i>Shundan:</i> bog'lar	1 224
	Uzumzorlar	78
	Tutzorlar	76
	Boshqa mevali ko'chatzorlar va ko'p yillik daraxtzorlar	3
4	Bo'z yerlar	
5	Yaylovlar	413 606
	Qishloq xo'jalik Yer turlari jami	443 150
6	Tomorqa yerlar	5 736
7	Bog'dorchilik sabzavotchilik uyushmalari yerlari	
8	Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	

9	O'rmonzorlar	3 516,5
10	Boshqa yerlar	141 225,5
	Jami yerlar	593 628